

## **MAKTABGACHA EKOLOGIK TA'LIM: MUAMMOLAR YECHIMLAR.**

**Odilova Sitora  
Xudoyqulova Nurxon**

Navoiy innovatsiya uneversiteti Maktabgacha ta'lism yo'nalishi 2-  
bosqich talabasi

**Anotatsiya:** Ekologiya, Ekologiya xavfsizlikni shakllantirish, maktabgacha, kichik guruxlarga ekologik tushunchani yaratish.

**Kalit so'z:** Ekologiya, maktabgacha, kichik gurux, atama, Gekkel, ekskursiya, bugun kunda, tabiatga yordam.

Hozirgi kunda dunyo hamjamiyati oldida turgan muhim masalalardan biri - turli miqiyosda inson xavfsizligi, xususan uning bir elementi bo'lgan ekologik tushunchani takomillashtirish, ekologik xavfsizlikni taminlashdir.

Aslida Ekologiya nima? Ekologiya so'zi yunoncha bo'lib " oykos" - uy, "logos" - fan ma'nolarini bildiradi. Ekologiya atamasi Ernest Gekkel tomonidan 1866-1869 yillar fanga kiritildi. Bugungi kunda esa keng targ'ib qilinmoqda. Maktabgacha ta'lism tashkilotida bolalarga beriladigan ekologik bilim, tabiatda o'zini tutish va atrof muhitni muxofaza qilish va izchillikda o'stirib borishdan iborat bo'ladi. Tabiatga, hamma narsaga ehtiyyotkorlik bilan yondashishni bolalar ongiga bog'cha yoshidan singdirib borishni hayot taqazo etadi. Bolalarga beriladigan ekologik ta'lism unga yaqin tanish bo'lgan joy, ko'chasi MTT bog'cha hovlisidagi narsalar bilan tanishtirishdan iborat. Bugungi kunda maktabgacha ta'lism tashkilotlarida ekologik ta'lismni tashkil etishning turli xil usullaridan foydalanib kelinmoqda. Mashg'ulot, ekskursiya kichik guruhlarda ishlash shakli bunga misol bo'la oladi. Yashab turgan joy tabiatni kuzatish yoki tabiat quchog'ida mehnat qilish kichik guruhlari bilan yakka tartibda tashkil qilish samarali natija beradi. Jumladan o'rgatish jarayonida turli usullardan foydalanish maqsadga muvofikdir.

Eksperiment

Ko'gazma

Amaliy

So'zlashuv

O'rgatishning usullari tarbiyachi va bolalarning faoliyat ko'rsatish usullari hamda bizni o'rab turgan atrofga nisbatan tarbiya shakllantiriladi.

Eksperiment tajriba: shu jumladan ilm fan va tabiat markazida olib boriladigan jarayonda amalga oshiriladi. Ko'rgazmali usul kuzatish rasmlarni

ko'zdan kechirish modellashtirishni kinofilm, deafilmarni ko'stash kabi tadbirlar kiradi.

Ko'gazmali usul: maktabgacha yoshdagi bolada tabiat to'g'risida aniq tasavurni shakllantirishga yordam beradi.

Amaliy usul: asosan o'yinlardan iborat bo'ladi. O'yin davomida elementlar, tajribalar va ushbu usulni modellashtirish yordamida tarbiyachi tabiatda sodir bo'ladigan hodisalar va alohida o'rgatilgan predmentlar o'rtaсидаги munosabat o'zaro aloqani o'rnatish orqali bolalarda vujudga keladigan tasavvurni aniqlashtirishga yordam beradi.

So'zlashuv usuli: bu usul o'z ichiga tarbiyachi bolalarga hikoyalar aytib berish tabiat to'risida badiiy asarlar o'qib berish orqali ijobjiy va hissiy shakllantirish tadbiri yordam beradi.

Xulosa:

Tabiatni asrash o'tmishdan meros, kelajakka meros qoldirmoqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'limni tashkil etishning zamonaviy innovatsiyon usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Farzandlarimizni tabiatga mexrli, e'tiborli qilib tarbiya qilishimiz ularga Ekoliyani maktabgacha yoshdan tushuntirishimiz yurtimizga diyorimizga manfaatlidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

Maktabgacha ta'lim nazaryasi.

Ekoliya asoslari.

Foydanilgan mavzular muallifi: Sanayeva. Haydarova.